

XITOIY (SIN) IMPERIYASINING JUNG'OR XONLIGINI ISTILO QILISH ARAFASIDA MARKAZIY OSIYODA SIYOSIY VAZIYAT.

Boltayev Oxun Obid o'g'li

Osiyo Xalqaro Universiteti "Ijtimoiy fanlar va texnika" fakulteti, Tarix va filologiya kafedrası.

email: 9690798@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14902042>

Annotatsiya. Maqolada VII asrning 30-40-yillaridan boshlab *Jung'or xonligida* ijtimoiy-iqtisodiy keskinlikning kuchayishi, tinimsiz urushlar va ularning davlatga ta'siri yoritilgan. Xususan, 1732-1752 yillar oralig'ida xonlikning *Rossiya imperiyasi*, *Qo'qon xonligi*, qozoq juzlari va boshqa qo'shni davlatlar bilan olib borgan harbiy-siyosiy munosabatlari tahlil qilinadi. Urushlar davlat resurslarini tugatib, xalq xo'jaligiga jiddiy zarar yetkazgan.

Shuningdek, Rossiya bilan Jung'or xonligi o'rtasida ziddiyatli savdo-siyosiy munosabatlar ham kelib chiqqan. XVIII asrning 50-yillariga kelib, Jung'or xonligi inqirozga uchrab, *Sin imperiyasi* tomonidan istilo qilina boshlagan.

Kalit so'zlar: Jung'or xonligi, Rossiya imperiyasi, Qo'qon xonligi, Qozoq juzlari, Sirdaryo, Toshkent, Turkiston, Qalmoqlar, Sibir, Sin imperiyasi, Ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz, Harbiy-siyosiy ziddiyatlar, Savdo-siyosat mojarolari.

THE POLITICAL SITUATION IN CENTRAL ASIA ON THE EVE OF THE CONQUEST OF THE DZUNGAR KHANATE BY THE CHINESE (SIN) EMPIRE.

Abstract. The article discusses the intensification of socio-economic tensions in the Dzungar Khanate from the 30s-40s of the 7th century, incessant wars and their impact on the state. In particular, the military-political relations of the khanate with the Russian Empire, the Kokand Khanate, the Kazakh zhuzes and other neighboring states between 1732 and 1752 are analyzed. The wars depleted state resources and caused serious damage to the national economy. Conflicting trade and political relations also arose between Russia and the Dzungar Khanate. By the 50s of the 18th century, the Dzungar Khanate was in crisis and began to be conquered by the Sin Empire.

Keywords: Dzungar Khanate, Russian Empire, Kokand Khanate, Kazakh zhuzes, Syrdarya, Tashkent, Turkestan, Kalmyks, Siberia, Sin Empire, Socio-economic crisis, Military-political conflicts, Trade-political conflicts.

ПОЛИТИЧЕСКАЯ СИТУАЦИЯ В СРЕДНЕЙ АЗИИ НАКАНУНЕ ЗАВОЕВАНИЯ ДЖУНГАРСКОГО ХАНСТВА КИТАЙСКОЙ (СИНСКОЙ) ИМПЕРИЕЙ.

Аннотация. В статье рассматривается усиление социально-экономической напряженности, постоянные войны и их влияние на государство в Джунгарском ханстве

в 30-40-х годах VII века. В частности, анализируются военно-политические отношения ханства с Российской империей, Кокандским ханством, казахскими жузами и другими соседними государствами в 1732—1752 годах. Войны истощили государственные ресурсы и нанесли серьезный ущерб национальной экономике. Между Россией и Джунгарским ханством также возникли противоречивые торговые и политические отношения. К 1850-м годам Джунгарское ханство находилось в кризисе и было завоевано империей Сунь.

Ключевые слова: Джунгарское ханство, Российская империя, Кокандское ханство, казахские жузы, Сырдарья, Ташкент, Туркестан, калмыки, Сибирь, Империя Син, Социально-экономический кризис, Военно-политические конфликты, Торгово-политические конфликты.

XVII asrning 30-40 yillaridan boshlab Jung'or xonligida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar keskinlashib, tinimsiz urushlar xonlikni og'ir siyosiy va ma'naviy tushkunlikka olib kelgan.

Natijada esa, davlatning iqtisodiy resurslari barcha yo'nalishlarda kurash olib borishga etmay qola boshlagan. Ammo, hukumron tabaqalar urushni ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish vositasi sifatida qaraganlar va tinimsiz urushlar davom ettirilgan. 1732 yilda Sirdaryoning yuqori oqimidagi Ketma Duba, 1723 va 1734 yil Toshkent, 1736-1738 yillarda qalmoqlar burut (XVII-XVIII asrlarda qirg'izlar tarixiy adabiyotlarda shu nom bilan tilga olingan)lar, Oltoy uryanxaylari bilan, 1744 yilda yana brutlar bilan, 1748 yilda Pulanij ulusi bilan, 1745-1746 yillarda G'arbiy Turkistonda Abdukarimbey (Qo'qon xoni 1733-1750 yy) degan knyaz bilan doimiy kurashlar olib borganlar. Toshkent, Turkiston, Inoq shaharlari ular hukumronligi ostida bo'lgan⁵⁸. Bu urushlar katta xarajatlardan tashqari inson resurslariga ham katta zarar keltirgan.

Shuningdek, Jung'or xonligiga nisbatan qo'shi davlatlarning dushmanona munosabatini kuchayishiga sabab bo'lgan. O'sha vaqtdagi dunyoning yangi kuchayib kelayotgan yirik imperiyalaridan biri bo'lgan Rossiya imperiyasi bilan Jung'or xonligining munosabatlari goh ziddiyatli, goh do'stona bo'lganligini tarixiy adabiyotlardagi ma'lumotlar tasdiqlaydi. Jung'or xonligining so'nggi bora harbiy-siyosiy jihatdan ustunligi XVIII asrning 40-yillari o'rtalarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan. Bu davrda faol tajovuzkor siyosat yuritgan xonlik qozoq juzlarini o'ziga bo'yinsundirishni boshlagan. Shuningdek, ular yashagan Yettisuv, Sharqiy Qozog'iston hududlaridan qozoqlarni siqib chiqara boshlaganlar. 1741-1742 yillarda Jung'orlarning O'rta va Kichik juzga navbatdagi hujumi Rossiya imperiyasi aralashuvi bilan to'xtatilgan⁵⁹. Ammo, tarixiy adabiyotlardagi ma'lumotlar bu borada bir-biriga zid keladi. G.E. Grumm-Grjimaev ma'lumotlarida keltirilishicha, rasman qozoqlar Rossiya imperiyasining vassali bo'lsalarda, 1742 yilda ulardan Jung'or xonligi vassallari sifatida o'lpon olishini

tasdiqlashga majbur bo'lgan⁶⁰. Qozoqlar masalasida 1744-1745 yillarda Oyratlar va Rossiya imperiyasi o'rtasidagi ziddiyatli munosabatlar vujudga kelgan. Ushbu ziddiyatdan Rossiya imperiyasining aholi va ularni qo'riqlovchi askarlari kam sonli bo'lgan Sibir mintaqasi ayniqsa aziyat chekkan. Oyratlar Sibir shaharlariga, Ust-Kamenegorsk, Semipalatinsk qal'alari, Kolyvano-Voskresensk zavodi atrofida qo'shin to'plab Rossiya imperiyasiga tahdid qila boshlaganlar⁶¹. Ikki o'rtada urush xavfi vujudga kela boshlagan. Rossiya va Jung'or xonligi o'rtasidagi munosabatlarda Sibirda savdo qilish masalalarida ham ziddiyatlar kelib chiqqa boshlagan bo'lib, buning oqibatida Rossiya ma'murlari Sibirdagi buxoroliklarni temir bilan savdo qilishini ta'qiqlaganlar. Savdo ta'qiqlariga qarshi Jung'or xoni o'zining noroziligini bildirib 1750 yilda Sibir gubernatoriga elchi yuborgan. Ikki o'rtada muammoli masalalar ko'payib, o'zaro munosabatlar keskinlashib borgan. Ikki davlat ham Sibir aholisidan yasoq (soliq) ola boshlagan. Tarixiy adabiyotlarda, Jung'or xonligi 1752 yilga qadar Rossiyaga tobe bo'lgan Janubiy Sibirdagi Barabin tatarlaridan ham o'lpon-soliqlar yig'ib olganligi bilan bog'liq ma'lumotlar mavjud⁶³. Bu ikki davlat o'rtasidagi siyosiy-diplomatik aloqalarni ziddiyatli bo'lishiga xizmat qilgan. Qozoqlarni o'z vassallariga aylantirishdan tashqari Jung'or feodallari Volgabo'yiga ko'chib ketgan qalmoqlarni Jung'oriya va unga yaqin hududlarga ko'chib kelishga chorlaganlar va birgalikda Sin imperiyasi, Markaziy Osiyodagi boshqa davlatlarga qarshi kurashnimo'ljallaganlar. Galdan Boshoktu xon (1671-1697 yy) davrida Sin davlati bilan doimiy kurash jarayonida Volgabo'yi qalmoqlari bilan Jung'or xonligi o'rtasidagi munosabatlar deyarli uzilib qolgan bo'lib, Sevan-Rabdan (1697-1727 yy) davrida o'zaro munosabatlar rivojlanib borgan⁶⁴. Ayniqsa, Jung'or xonligida inqiroz boshlanish arafasida xonlikning iqtisodiy va harbiy kuchi kamayib borayotganligini anglagan Galdan-Seren 1743-1745 yillarda Qalmoq xonligi malikasi Darma-Bala bilan bir necha bora qalmoqlarni Jung'oriyaga qaytish masalasini muhokama qilib xabar almashgani tarixiy adabiyotlarda keltirib o'tilgan⁶⁵. Bu vaqtda Qalmoq xonligining Rossiya imperiyasiga vassal bo'lganligini inobatga olgan holda ikki o'rtadagi vaziyat ziddiyatli bo'lanligini anglash qiyin emas. Qozoq juzlari, Volgabo'yi va Sibir hududlaridagi mojarolar Rossiya imperiyasi va Jung'or xonligi o'rtasida urush holatini keltirib chiqarishi mumkin edi. Urush kelib chiqmaganligining asosiy sababi uzoqqa cho'zilgan imperiya chegaralarini mudofa qilish imkonini bo'lmaganligi, Rossiya imperiyasining bu vaqtdagi siyosiy-harbiy nuqtai-nazardan etarli ta'sir kuchiga ega bo'lmaganligi hisoblangan. Chunki, Janubiy Sibir bo'ylab 3 ming km chegarasida XVIII asrning 40-yillarida 8150 askari bor bo'lgan xolos. 1750 yilda ularning soni 10 mingdan sal oshgan⁶⁶. Ikkinchi tomondan 1745 yilda Qo'qon xoni Abdulkarimbiyning Toshkent va Turkiston shaharlariga hujum qilib, dasht bilan savdoda muhim ahamiyatga ega bo'lgan bu shaharlarni jung'orlardan tortib olishi bo'lgan.

Bu jung'orlarning Sirdaryo havzasidagi hukumronligiga zarba bo'lib, ular katta qo'shinni Kolyvano-Voskresensk zavodi hududidan olib Sirdaryo bo'ylariga yurish uchun tashlashga majbur bo'lganlar⁶⁷. O'zaro munosabatlarning ziddiyatli bo'lishi iqtisodiy aloqalarga ham ta'sir ko'rsatgan. So'nggi bora Rossiya ta'sirida bo'lgan Semipalatinskdan so'nggi savdo karvoni Jung'oriyaga qarab 1752 yilning 27 oktyabrida yo'lga chiqqan. Shundan so'ng Rossiya bilan Jung'oriya savdosi butunlay to'xtab qolgan. Chunki, Jung'or xonligida boshlanib ketgan siyosiy kurashlar jarayonida jung'or feodallarining o'zlari savdo karvonlarini talay boshlashlari bunga sabab bo'lgan⁶⁸. XVIII asrning 50-yillarida Jung'or xonligini qulash jarayoni tezlashib, taxt uchun kurashlar va Sin imperiyasi tomonidan Jung'oriyani istilo qilish boshlangan. Ushbu murakkab vaziyatda Rossiya imperiyasi o'z betarafligini saqlab qolishga harakat qilgan. Rossiya-Jung'oriya diplomatik munosabatlarning so'nggi davri (1745-1758 yy)da Rossiya gubernatorlarining Jung'or xonligiga kelgan vakillarining xabarlarini ultimatum tarzida bo'lib, ruslarning razvedka xarakteridagi harakatlari kuchaygan⁶⁹. Shuningdek, Rossiya imperiyasi Jung'or xonligining ichki kurashlari va Sin istilosi davrida zaiflashuvidan chegara muammosini bartaraf etib olishga harakat qilgan⁷⁰. Rossiya imperiyasi Sin istilosi va zulmidan qochgan Jung'oriya aholisining asosiy qismini o'z himoyasiga ham olganligi tarixiy ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi. Sharqiy Turkiston hududi savdo-iqtisodiy munosabatlarda qulay hududda joylashgan bo'lib, savdo karvonlari kesishgan muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan. Sharqiy Turkistonda hukumronlik qilish uchun Xitoy va Jung'or xonligi asosiy da'vogar davlatlar bo'lib, Jung'or xonligi o'troq mintaq va savdo bozorlariga ega bo'lish orqali harbiy qudratini oshirishga umid bog'lasa, Xitoy tomoni Jung'orlarni harbiy-siyosiy qudratini kuchsizlantirish maqsadida ushbu mintaqaga da'vo qilgan. Aholi musulmon bo'lgan Sharqiy Turkistonda XVI asr davomida naqshbandiya tariqati tarqalib, uning yangi oqimlari vujudga kelgan. Sharqiy Turkistonda naqshbandiya tariqati vakillari o'zaro raqobatlashuvchi ikki guruhga Oqtog'li va Qoratog'li xo'jalar⁷¹ga bo'linib ketganlar. Oq va qora tog'lik atamasining kelib, chiqishiga ularning bosh kiyimi rangi sabab bo'lgan. Tog'lik esa G'arbiy Turkiston aholisi Sharqiy Turkiston aholisiga bergan umumiy nomi bo'lib hisoblanishi xususidagi ma'lumotlarni Ch.Ch. Valixonov keltirib o'tgan⁷². Sharqiy Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy harakatlarni XVI asrdan boshlab ushbu guruh etakchilari ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmagan. Sharqiy Turkistonda Chig'atoyxon avlodlarini hokimiyatdan chetlashtirib borib, xo'jalar dunyoviy hokimiyatni ham bosib olganlar. Ayniqsa, Oqtog'li xo'jalardan bo'lgan Oppoxo'ja⁷³ 1680 yilda Chig'atoylardan bo'lgan Ismoilxonni jung'orlar yordamida taxtdan ag'darib hokimiyatni to'liq qo'lga olgan⁷⁴. Offoxo'ja tomonidan hokimiyatni qo'lga olinishida Tibetdagi lamaizm ruhoniylari va kofir jung'orlarning xizmatlari katta bo'lganligi sababli oddiy aholi tomonidan qo'llab-quvvatlanmagan.

Offoqxo'ja xalq oldida kofirlarga xizmat qilmasligini isbotlashga harakat qilib, Ismoilxonning ukasi Muhammad Aminni taxtga o'tqizgan va uni qalmoqlarga hujum qilishga ko'ndirgan. Muhammad Amin⁷⁵ Jung'oriyaga hujum qilgandan so'ng qilib qo'ygan ishidan o'zi ham qo'rqib, toqqa qochib ketgan va o'sha erda hamrohlari tomonidan o'ldirilgan. Offoqxo'ja yana taxtga o'tirgan. Offoqxo'ja qonuniy sulola vakillarni hokimiyatdan ag'dargan, kofirlar yordamida zo'rlik bilan taxtni tortib olgan shaxs sifatida tarixda qolgan. Qalmoqlar Muhammad Amin bosqini uchun qasos olishga kelganlarida Yorkentda bo'lgan qora tog'li xo'jalarning etakchisi Doniyolxo'ja ularga qo'shilgan va buning evaziga qalmoqlardan Sharqiy Turkistonni boshqarish huquqini olib, Oq tog'li xo'jalar etakchisi Axmadni asir sifatida Ilibo'yiga olib ketilishiga erishgan⁷⁶. Hokimiyat yana qora tog'li xo'jalar qo'ligi o'tgan.

REFERENCES

1. Абдукаримов Дж.А. Политическое положение Уратюбинского владения и Худжанда в начале XVIII- до 40-х г. XIX вв. (по материалам «Мунтахаб ат-таварих» Мухаммада Хакимхана). // Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Худжанд-2020. - 191 с.
2. Абдуманатов Р.А. Кипчаки в этногенезе Кыргызов. – Бишкек: -2015. - 200 с.
3. Абрамзон С.М. Очерк культуры Киргизского народа. – Фрунзе: Издательство Киргизского филиала Академии Наук СССР, 1946. - 122 с.
4. Авляев Г.О. Происхождение калмыцкого народа. - 2-е изд., перераб. и исправл., - Элиста: Калм. кн. изд-во, 2002. - 325 с.
5. Boltayev, O. (2024). QO'QON XONLIGINING XVIII ASR SO'NGI CHORAGIDA BUXORO, XIVA VA KO'CHMANCHILAR BILAN OLIB BORGAN DIPLOMATIYASI. *Modern Science and Research*, 3(10), 64-68.
6. Obid o'g'li, B. O. QO'QON XONLIGINING XVIII ASR SO'NGI CHORAGIDA BUXORO, XIVA VA KO'CHMANCHILAR BILAN OLIB BORGAN DIPLOMATIYASI.
7. Boltaev, O. (2024). BUKHARA'S CARAVAN TRADE AND ITS ROLE ON THE SILK ROAD. *Analytical Journal of Education and Development*, 4(10), 293-297.
8. Boltayev, O. (2024). XX ASR BOSHLARIDA GERMANIYA VA TURKIYA ITTIFOQINING MARKAZIY OSIYOGA TA'SIRI. *Modern Science and Research*, 3(12), 556-564.
9. Boltayev, O. (2023). A GENERAL DESCRIPTION OF THE POLITICAL AND DIPLOMATIC PROCESSES IN CENTRAL ASIA IN THE MIDDLE OF THE 18TH CENTURY. *Modern Science and Research*, 2(9), 145-149.

10. Boltayev, O. (2025). TARIX FANI UCHUN YOZMA VA OG'ZAKI MANBALARNING SHAKLLANISHI. *Modern Science and Research*, 4(1), 909-917.
11. Sadullayev, U., Muyiddinov, B., & Boltayev, O. (2025). YOSHLAR DUNYOQARASHI SHAKLLANISHIDA MILLIY TARBIYA VA TA'LIMNING AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 4(1), 59-67.
12. Sadullayev, U., Muyiddinov, B., & Boltayev, O. (2025). IBN SINONING FALSAFIY QARASHLARI. *Modern Science and Research*, 4(1), 52-58
13. Muyiddinov, B. (2023). XII-XIII ASRLAR DAVRIDA BUXORODA ILM – FANNING RIVOJLANISHI. *SCHOLAR*, 1(28), 341–345. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10027071>
14. Muyiddinov Bekali. (2023). MO'G'ULLAR BOSQINI DAVRIDA BUXORONING AYANCHLI TAQDIRI. *TADQIQOTLAR.UZ*, 25(2), 212–215. Retrieved from <http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/308>
15. Muyiddinov Bekali. (2023). THE ROLE OF BUKHARA AND OTHER CITIES IN THE MILITARY ART AND ARMY STRUCTURE OF KHOREZMSHAHS . ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 35(3), 55–58. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/10035>
16. Muyiddinov, B. (2024). BARTHOLD'S "СОЧИНЕНИЯ. ТОМ I. ТУРКЕСТАН В ЭПОХУ МОНГОЛЬСКОГО НАШЕСТВИЯ" THE HISTORY OF THE CREATION OF THE WORK. *MODERN SCIENCE AND RESEARCH*, 3(1), 699–702. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10552555>
17. Muyiddinov, B. (2024). THE ROLE OF MILITARY REFORMS IN THE BUKHARA KHANATE IN THE LIFE OF THE STATE UNDER THE SHAYBANIDS. *MODERN SCIENCE AND RESEARCH*, 3(2), 646–648. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10668887>
18. MB Bahodir o'g'li. (2024). Military Art of Turkish Khaganate in the Early Middle Ages. *European Journal of Innovation in Nonformal Education*, 4(16), 223–227. <https://inovatus.es/index.php/ejine/article/view/2705/2586>
19. Yunusovich, H. M. (2024). The Formation, Development and Role of the High Seljuk Empire Founded by the Turkic Peoples in the Islamic World. *Miasto Przyszłości*, 53, 956-959.
20. Haqqulov, M. Y. O. G. L. (2022). Markaziy Osiyoda ilk diplomatik munosabatlar tarixi. *Science and Education*, 3(10), 385-389.
21. Yunusovich, H. M. (2024). Experiences Related to the Fine Fiber Cotton of Uzbekistan during the Years of Soviet Authority. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 129-132.

22. Ozodlik va mustaqillik g'oyalarini, A. O 'RTA OSIYO XALQLARINING OZODLIK ORZUSI BO 'LGAN "TURKISTON MUXTORIYATI" Haqqulov Mehridin Yunusovich.
23. Azizovich, G. A., Vahobovna, S. G., & Haqqulov, M. Y. O 'RTA OSIYO OLIMLARINING KARTOGRAFIK MEROSI.
24. Gulyamov, A. A. (2024). JAMIYATIMIZNING IJTIMOIIY-IQTISODIY, MA'NAVIY-MADANIY SOHALARIDA OILANING ROLI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 36(2), 149-153.
25. Azizovich, G. A. (2024). Trade Relations of Population in Bukhara Emirate, Shariah Rules and Regulations in Commercial Affairs, Partnership Relations. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 189-194.
26. Azizovich, G. A. (2024). Family-Marriage and Inheritance Relations of the Population in the Bukhara Emirate. *Miasto Przyszłości*, 53, 964-969.
27. Gulyamov, A. (2024). BUXORO MUZEYNING TASHKIL TOPISHI TARIXI. *Modern Science and Research*, 3(12), 659-667.
28. Gulyamov, A., & Ashurov, D. (2025). CHANGES IN THE LIFE OF THE WORLD'S COUNTRIES AFTER WORLD WAR II. *Journal of universal science research*, 3(1 (Special issue)), 333-341.
29. Gulyamov, A. (2025). MANG 'ITLAR SULOLASI DAVRIDA DAVLAT BOSHQARUVI, TUZUMI VA ICHKI SIYOSATI. *Modern Science and Research*, 4(1), 790-798.
30. Boltayev, O. (2024). QO'QON XONLIGINING XVIII ASR SO'NGI CHORAGIDA BUXORO, XIVA VA KO'CHMANCHILAR BILAN OLIB BORGAN DIPLOMATIYASI. *Modern Science and Research*, 3(10), 64-68.
31. Obid o'g'li, B. O. QO'QON XONLIGINING XVIII ASR SO'NGI CHORAGIDA BUXORO, XIVA VA KO'CHMANCHILAR BILAN OLIB BORGAN DIPLOMATIYASI.
32. Boltaev, O. (2024). BUKHARA'S CARAVAN TRADE AND ITS ROLE ON THE SILK ROAD. *Analytical Journal of Education and Development*, 4(10), 293-297.
33. Boltayev, O. (2024). XX ASR BOSHLARIDA GERMANIYA VA TURKIYA ITTIFOQINING MARKAZIY OSIYOGA TA'SIRI. *Modern Science and Research*, 3(12), 556-564.
34. Boltayev, O. (2023). A GENERAL DESCRIPTION OF THE POLITICAL AND DIPLOMATIC PROCESSES IN CENTRAL ASIA IN THE MIDDLE OF THE 18TH CENTURY. *Modern Science and Research*, 2(9), 145-149.

35. Boltayev, O. (2025). TARIX FANI UCHUN YOZMA VA OG'ZAKI MANBALARNING SHAKLLANISHI. *Modern Science and Research*, 4(1), 909-917.
36. Xayrullayev, U. (2024). THE IDEA THAT MADE THE OTTOMAN STATE GREAT (RED APPLE II). *Modern Science and Research*, 3(2), 1071-1073.
37. Xayrullayev, U. (2024). BRIEFLY ABOUT THE" RED APPLE" MYTHOLOGY OF THE TURKS. *Modern Science and Research*, 3(1), 568-572.
38. Umidjon, X. (2024). Literacy and Information Exchange in the Ancient East and West. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 179-183.
39. Xayrullayev, U. (2024). THE POSITION OF CENTRAL ASIAN GOVERNORSHIPS DURING THE PERIOD OF THE TURKISH KHANATE AND THE ARAB INVASION.
40. Xayrullayev, U. (2024). EFTALLAR DAVLATI VA TURK XOQONLIGIDA HUKMDORLIK LEGITIMATSIYASI. *Modern Science and Research*, 3(12), 843-851.
41. Xayrullayev, U. (2024). TURK XOQONLIGI VA ARABLAR BOSQINI DAVRIDA O'RTA OSIYO HOKIMLIKLARINING MAVQEYI. *Modern Science and Research*, 3(12), 339-343.
42. Xayrullayev, U., Sayfutdinov, F., & Rahmonova, S. (2025). SHAYBONIYLAR DAVLATI VA USMONLI TURKLAR DAVLATI O'RTASIDAGI DASTLABKI ALOQALAR TAVSIFI. *Modern Science and Research*, 4(1), 147-154.
43. Xayrullayev, U. (2025). BUXORO VILOYATINING IQTISODIY HOLATI (1990-1991 YILLAR). *Modern Science and Research*, 4(1), 1018-1024.
44. Umidjon, X. (2023). 1918-1939-yillarda Polshaning ichki siyosatidagi o'zgarishlar. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 42(42).
45. Xayrullayev, U. F. (2023). 1918-1939 YILLARDA POLSHANING ICHKI SIYOSATIDAGI O'ZGARISHLAR. *SCHOLAR*, 1(28), 337-340.
46. Nozimov, J. T. (2024). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF CHILDREN FOR FORMATION OF DEVELOPMENT FOR PREPARATION FOR UNIVERSITY. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(5), 575-578.
47. Нозимов Ж. Т. и др. Социально-психологические особенности формирования духовных потребностей в профессиональном развитии студентов // *Science and Education*. – 2024. – Т. 5. – №. 5. – С. 455-459.
48. Nozimov, J. (2019). The use of the trainings in developing intercultural competence in students. In *Психология образования будущего: От традиций к инновациям* (pp. 112-114).

49. Nozimov, J. T., & Usmanova, M. N. (2022). SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF INTERNET ADDICTION AMONG STUDENTS. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 1(10), 49-51.
50. PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF CHILDREN FOR FORMATION OF DEVELOPMENT FOR PREPARATION FOR UNIVERSITY. (2024). *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(5), 575-578. <https://mjstjournal.com/index.php/mjst/article/view/1502>
51. Ilniyazovich, S. F. (2023). RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TARIXI FANINI O'QITISHDAGI AHAMIYATI.
52. Ilniyoz o'g'li, S. F. (2023). ETNOGRAFIK TADQIQOTLARDA QORAQALPOQ XALQINING YORITILISHI.
53. Ilniyazovich, S. F. (2024). The Formation of Preliminary Knowledge about the People of Karakalpak. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 149-155.
54. Sayfutdinov, F. (2024). BUXORO AMIRLIGINING QURILISH TARIXI: MADANIY VA ARXITEKTURA TARAQQIYOTI MEROSI. *Modern Science and Research*, 3(12), 852-858.
55. Sayfutdinov Feruz Ilniyoz o'g'li. (2023). XX ASR 2-YARMI XXI ASR BOSHLARI ZARAFSHON VOHASIDA ETNOSLARARO MUNOSABATLAR. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(9), 1-5. Retrieved from <https://sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/7941>
56. Sadullayev, U. . (2024). MAHALLA: UNDERSTANDING THE CONCEPT. *Medicine, Pedagogy and Technology: Theory and Practice*, 2(4), 376-385.
57. Sadullaev, U. . (2024). USE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN EDUCATION. *Medicine, Pedagogy and Technology: Theory and Practice*, 2(5), 344-352.
58. Sadullaev, U. (2024). EDUCATION AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE: A NEW ERA OF OPPORTUNITY. *Medicine, Pedagogy and Technology: Theory and Practice*, 2(6), 238-241.
59. Shokir o'g'li, S. U. (2024). Media literacy is a requirement of the modern world. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 276-280.
60. Shokir o'g'li, S. U. (2024). Media literacy is a requirement of the modern world. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 276-280.